Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari lavozimiga kirishgan dastlabki kunlardan oq kadrlar salohiyatiga, ularni xalq bilan ishlay olish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratdi. Yangicha fikrlaydigan, innovatsion bilim va tafakkurga ega bo'lgan, xorijiy mamlakatlarda ta'lim olgan yosh, iqtidorli kadrlarni davlat boshqaruvi organlariga, korxonalar va tashkilotlarga, ta'lim muassasalariga rahbar etib tayinlash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Chunki, shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamon, davr talabi boshqaruv kadrlarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va roliga mutlaqo boshqacha talablarni qo'ydi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev asarlarida yangi avlod kadrlarini ta'lim muassasalari (maktabgacha ta'lim, umumta'lim, oliy ta'lim) rahbar kadrlarini tarbiyalashni xorijiy tajribalar asosida yo'lga qo'yish, bu jarayonning iqtisodiy-xuquqiy va metodologik asoslari bayon etilgan.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarni ro'yobga chiqarish uchun zamonaviy boshqaruv usullarini xayotga tadbiiq etish, faoliyat samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois jamiyatimizning qaysi bo'g'inidan qat'iy nazar sog'lom muhitni yaratishda birinchi darajali boshqaruvchi shaxs-rahbar mas'uldir.

Biz vatanga sodiiq, mas'uliyatli, xalq manfaatini o'z manfaati deb bilgan, farovonlikni o'ylaydigan, ishning ko'zini biladigan, zamonaviy fikrlash va ishlash qobiliyatiga ega, munosib boshqaruvchi kadrlarni topishimiz, tarbiyalashimiz, mas'ul lavozimlarga tayinlasakgina oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishamiz. Chunki zamon va davrning o'zi, bizni taraqqiyot yo'lida yo'qotilgan vaqt o'rnini to'ldirishga, xalqimizning dardu-tashvishlarini bartaraf etishga, ertangi kunning munosib pedagog kadrlarini tayyorlashga va ular oldida mas'uliyatni yanada chuqur his qilishga undamoqda.

Inson huquqlariga zid ravishda ta'lim muassasasiga kelgan yangi rahbar tomonidan oldindan ishlaydigan professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarga nisbatan "tozalash" operatsiyasiga moyillikning mavjudligi va bu jamiyatda katta noroziliklarga sabab bo'lishini esa ming afsuski, ko'plab boshqaruvchi-rahbarlar anglab yetmagan va bunday nomaqbul ishlar xanuzgacha davom etmoqda.

Ta'lim tizimini barcha bo'g'inlarida boshqaruvchi kadrlar muvaffaqiyat sari intiluvchi, javobgarlikni o'z zimmasiga olishga qodir, tashkilotchi va irodasi mustahkam shaxs bo'lmog'i kerak. Shuningdek, rahbardan o'z zimmasidagi vazifalarni samarali bajarilishi, qo'l ostidagilarni xam shunga safarbar etishi, ta'lim jamoasini qiynayotgan jiddiy muammolarni chuqur o'rganib, maqbul yechimini topishi, muammoli vaziyatlarni donolik bilan bartaraf etishi, o'z ishiga tanqidiy qarash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Ta'lim muassasalarining hayotini samarali, oqilona tashkil qilish, ta'lim muassasalarining har bir rahbari va o'qituvchilari tomonidan o'z burchlarining sifatli bajarilishi; o'quv tarbiya ishlarining muvaffaqiyati kelajakda qilinadigan ishlarning aniq-ravshanligiga, hal qilinayotgan masalalarining aniqligiga, vazifalarning to'g'ri taqsimlanishiga va ishni mohirlik bilan operativ bir-biriga muvofiqlashtirib olib borilishiga bog'liq. Bunga faqat ko'p qirrali talim muassasalari hayotining har bir uchastkasida qilinadigan ishlarning puxta o'ylab tuzilgan rejasi bo'lsagina erishish mumkin. O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarining sifati, ularning tarbiyalanganlik darajasi, intizom pirovard natijada rejaga bog'liq. qoida bo'yicha yillik rejani shaxsan direktorning o'zi tuzishi kerak. Biroq rejani o'z o'rinbosarlari va kasaba uyushmalari bilan birgalikda tuzgan direktorlar to'g'ri qilishadi. Ba'zi ta'lim muassasalarida maxsus komissiya tashkil qilinadi.

Boshqaruvchi rejaning har bir bo'limini tuzib chiqish uchun mas'ul shaxslarni belgilaydi, reja loyihasini topshirish muddatini ko'rsatadi, rejalashtirish oldidan o'qib chiqish kerak bo'lgan adabiyotni tavsiya qiladi. Reja loyihasi butun komissiya ishtirokida muhokama qilinadi. Reja tuzishga shunday yondashilganda ham direktorning o'quv tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosari zimmasiga baribir juda



katta mas'uliyat tushadi: direktor bilan birgalikda u yillik rejaning eng optimal va ishlash uchun qulay strukturasi yoki sxemasini tanlashi kerak

Rejalashtirish maktab ishini aniq tashkil etish, uning ijtimoiy va ma'naviy faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish, faoliyat mazmunining shakl va metodlarini belgilashning zarur sharti bo'lib hisoblanadi.

Rejalashtirish umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqarishning asosiy vositasi bo'lib hizmat qiladi va muammo, imkoniyatlarini yo'lga solish jarayonida yordam beradi.

Maktab faoliyati rejalashtirilganda ilmiylik, tahliliy, maqsadga qaratilganlik, istiqbollilik, uzluksizlik, rejalashtirilgan vazifalarni aniq taqsimlash, jamoatchilik, kompleks – tizimli yondashish, vorislik, betaraflik, har bir maktabning imkoniyatlari va chinakam kuchini xisobga olish tamoyillaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya maskani-maktabning zimmasiga yuklangan vazifalarga mos bo'lishi lozim. Jumladan, Finlandiya ta'limining bugungi kunda nufuzli iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o'tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, Finlyandiyalik maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek dunyodagi eng ko'p kitob o'quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, Finlyandiyalik maktab o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha -dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, Finlyandiyalik maktab o'quvchilari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi. Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so'zda baho qo'yiladi: o'rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko'rinishdagi baholar yo'q. Finlyandiya barcha maktablar «Wilma» davlat elektron tizimiga ulangan, bu elektron maktab kundaligidek gap, har bir ota-ona unga kirish uchun shaxsiy kodga ega. Pedagoglar baho qo'yib, davomatni belgilab, bolaning maktabdagi hayoti haqida xabar berib borishadi; shuningdek psixolog, ijtimoiy xizmatchi, “kelajak o'qituvchisi”, feldsher ham u yerda kerakli ma'lumotni qoldiradi. Fin maktablarida baholar xavotir uyg'otmaydi, ular faqat o'quvchining o'zi uchun kerak, qo'yilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va o'zini tekshirish uchun qo'llaniladi. Baholar o'qituvchi, maktab nufuziga ta'sir ko'rsatmaydi va hech qanday ko'rsatkichlarini buzmaydi. Maktablar hududi o'ralmagan, kiraverishda qo'riqchilar yo'q. Aksariyat maktablarning kirish darvozasi avtomatik tizimga ega, binoga darslar jadvali asosida kirish mumkin. Darsda bolalar parta va stolda o'tirishi shart emas, polda (gilamda) o'tirish ham mumkin. Ba'zi maktablarda sinflar divan va kreslolar bilan jihozlangan. Kichik maktab inshooti gilamchalar bilan ta'minlangan. Forma yo'q, kiyimga nisbatan qandaydir talablar ham yo'q, istagan kiyimda kelish mumkin. Almashtirish uchun qo'shimcha poyabzal talab qilinadi, lekin kichik va o'rta zvenodagi bolalar paypoqda yurishni ma'qul ko'rishadi. Darslar ko'pincha ochiq havoda maktab oldida, maysalar ustida yoki maxsus jihozlangan qatorlarda o'tkaziladi. Tanaffus vaqtida kichik maktab o'quvchilari albatta ko'chaga olib chiqiladi. Uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning o'rniga pedagoglar muzey, o'rmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qilishadi. “Doska oldida” o'qitish usuli qo'llanmaydi, bolalar materialni so'zlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. O'qituvchi darsga umumiy tus beradi, so'ngra o'quvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Toshkent oqshomi” 2018 yil, 29 dekabr. №250 (13.847)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-49-47-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.
3. “Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Qarori (PQ-4963-son, 25.01.2021 y.)
4. Finlyandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019



ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Ҳайдарова Лобар Абдурасуловна

Навоий вилояти Хатирчи туман ХТБ тасарруфидаги 24-мактаб
инглиз тили фани ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада чет тилларини ўқитишда ахборот технологиялари имкониятларидан фойдаланишнинг самарали жиҳатлари ёритилган.

Калит сўзлар: чет тили, ахборот технологиялари, дарс, интерфаол.

Ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми ва ҳаётини зарурати бўлган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Бугунги кунда мустақил тараққиёт йўлидан бораётган мамлакатимизнинг узлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш, янги сифат босқичига кўтариш, унга илғор педагогик ва ахборот технологияларини жорий қилиш ҳамда таълим самарадорлигини ошириш давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Бугунги кунда таълимда, хусусан, чет тилларни ўргатишда инновацион педагогик технологиялар ва интерфаол усуллардан кенг фойдаланилмоқда. Хорижий тил таълимига инновацион педагогик технологияларнинг тадқиқ- шахсни жамиятнинг талабига кўра йўналтириш, таълимни шу талаблар асосида ташкил этиш таълим тамойиллари, методлари алоқадорлиги асосида шахсни ҳар томонлама етук кадр қилиб шакллантириш, унинг қобилияти ва имкониятларини тўлиқ намоён этиши ва ривожлантириши учун қулай шарт- шароитлар яратишдан иборат.

Ўқув жараёнида интерфаол педагогик технологияларни қўллаш ва ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланиш бугунги кун педагогларининг диққат марказида турган бош масалалардан биридир. Чунки, янги давр таълим жараёни ўқитувчидан инновацион педагогик технологиялар билан бир қаторда ахборот коммуникацион воситаларидан фойдаланиш кўникма ва малакаларини ҳам пухта эгаллаш заруратини тақозо этмоқда. Айниқса, чет тилларини ўрганишга бўлган талаб ва эҳтиёжнинг тобора ортиб бориши, чет тили ўқитувчисининг зиммасига ҳам бир қатор вазифаларни юклайди. Замонавий чет тили ўқитувчиси ўз фанини аъло даражада билиши, педагогик қобилиятларини тўла намоён эта олиши ва замонавий педагогик технологияларни, интерфаол таълим методларини моҳирона қўллаш олиши, АКТни ҳам дарс жараёнига тадбиқ эта олиши лозим. Чет тили ўқитувчисининг бундай билим, кўникма, малакаларга ва маҳоратга эга бўлиши ўқувчиларнинг тилни юқори даражада ўзлаштиришларини ҳамда дарснинг сифат самарадорлигини таъминлайди. Чет тилларини ўқитиш бўйича тузилаётган янги ўқув дастурлари, ҳар бир ўқувчига индивидуал ёндашибгина қолмай, уларнинг ҳамкорликдаги фаолиятини ҳам назарда тутмоқда. Бу эса ўз навбатида ўқувчининг индивидуал-психологик хусусиятларидан келиб чиқиб, унинг ижтимоий жараёнда иштирокини таъминлашга ҳам хизмат қилади. Психологияда, маълумки, шахснинг ахборотни қабул қилиш ва қайта ишлаш мезонларига кўра аудиал, визуал ва кинестетик типлари мавжуд бўлиб, киши олаётган ахборотнинг катта қисмини олий нерв фаолиятининг юқоридаги хусусиятларидан келиб чиқиб ўзлаштиради. Яъни, олий нерв фаолияти аудиал хусусиятга эга бўлса, у маълумотларнинг катта ҳажмини эшитиш анализаторлари ёрдамида самаралироқ қабул қилади. Визуал хусусиятли нерв системасига эга шахсларнинг хотирасида кўпроқ кўрув идроки асосида қабул қилинган ахборотлар сақланиб қолади. Кинестетиклар эса маълумотларни тана сезгилари ва ҳаракатлар ёрдамида осонроқ идрок этадилар. Бунга асосланиб, биз ўқувчиларни ҳам ахборотни қабул қилиш ва ўзлаштириш хусусиятларига кўра аудиал, визуал ва кинестетик типларига киритамиз. Чет тилини ўқитиш бўйича тузилаётган замонавий ўқув дастурларида ўқитишнинг айнан шу каби психологик жиҳатлари эътиборга олинганлиги таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Масалан, инглиз тилини ўқитишда интерфаол методлардан бири “ Body language ” – “Тана тили” кинестетикларнинг инглиз тилини ўзлаштиришига фаол таъсир ўтказса, “ Visual ” ва “ Audial ” услубларидаги машқлар визуал ёки аудиал хусусиятли ўқувчиларга мавзунини пухта ўрганишларига хизмат қилади. Шунингдек, “ Individual ” ва “ Group learning ” шаклидаги машғулотлар ўқувчиларни индивидуал ёки ҳамкорликда ишлаш кўникмаларини шакллантиришда ижобий самара беради.



Тил ўрганиш ва ўргатиш шундай мураккаб жараёнки, ўқувчи ва ўқитувчи ўзаро ҳамкорликда ишламасалар, дарсда самарали натижага эришиш жуда қийин.

Дарсда бир вақтнинг ўзида барча ўқувчиларнинг диққатини ўзига тортиш ва дарс мавзусини тушунтиришда АКТдан фойдаланишнинг аҳамияти катта. Чунки, АКТ ёрдамида болага ҳам аудиал, ҳам визуал, таъсир этиш билан бир қаторда уларни эркин, ижодий фикрлаш ва яқка ёки ҳамкорликда ишлаш қўникмаларини шакллантириш имкониятлари жуда кенг. Дарсда қўлланиладиган ҳар бир усул, ҳар бир восита (кўргазмали қурол, тарқатма материал, видео-аудио ва мультимедиа воситалари, турли слайдлар ва ш.к.) ўқувчини фанни чуқурроқ англашга, тилни пухта ўрганиш, эшитиш, кўриш каналлари орқали ахборот қабулини кучайтириш, оғзаки нутқини ўстириш, фикрлаш доираси ва дунёқарашини кенгайтириш, ватанпарварлик туйғусини шакллантириш билан бир қаторда ўзга халқлар ва миллатларни ҳурмат қилиш, турли миллатлар маданиятини ўрганиш, тилларни ўрганишга қизиқиш уйғотиш, иштиёқини кучайтириш, мулоқотмандлик қобилиятини ривожлантириш, тинглаш малакаларини шакллантиришга хизмат қилса таълим самарадорлигига эришиш мумкин.

Адабиётлар:

1. .Ишмухамедов, М. Мирсолиева «Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари» Тошкент, Фан ва технология 2014 йил
2. Tursunnazarova E.T. O'quvchi yoshlarga chet tilini o'qitishda samarali usullardan foydalanish. // "Uzluksiz Ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnal № 2 // Toshkent, 2018. – B. 108-111.
3. Tursunnazarova E.T. Foreign experiences in the formation of nonprofessional teachers' English learning motivation. // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). India, 2021, - Value: 1.241. -B. 63-66. Impact Factor: 8.013.



THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS OF PROFESSIONAL
COMPETENCE

Rasulova Dilfuza Urinbayevna

Senior teacher of Tashkent State Agrarian University,
Department of Languages

Annotation: The article, based on the definitions of the concept of professional competence, requires the existence of analyses that allow the study from the point of view of increasing the effectiveness of preparation for professional activities. The process under analysis is more effective when certain conditions are met. To determine the development of the analysis, it is proposed that a task consisting of several mandatory parts be performed.

Key words: professional competence, professional education, analysis

In connection with the introduction of educational standards in higher education, the educational process has changed significantly. Competency-based approach is being actively used, which not only acquires knowledge to a certain extent but also puts the acquired information into practice. In the formation of traditional knowledge, skills and qualifications, the formation of competencies necessary in the field of future professional activity was analyzed.

To date, not all aspects of the application of the approach based on professional competence have been considered, so this topic is relevant for consideration. It should be noted that in the specially organized educational process of professional competencies, it is necessary to achieve a systematic unity of qualitative and quantitative changes in the content of certain types of competencies.

According to scientists, the knowledge, abilities, skills and experience needed to perform professional activities is a general ability based on knowledge and values, which allows thinking through actions to solve problems. Others consider competence as a person's ability to take responsible life actions, and the ability to actively change oneself and the world. Based on these definitions, we can derive our definition.

Competence is defined not simply as the sum of acquired knowledge, skills and abilities, but also as the experience of using them. This is the desire to apply one's knowledge to perform a successful activity. As for professional competencies, this is a set of professional knowledge and experience and the desire to apply them in the professional field. By forming professional competencies, the student will have the ability to determine the relationship between knowledge and the situation and will be able to adequately solve the problems that arise. The distinctive feature of competence as an educational result is:

- this is the result of holistic education;
- it appears and exists in the form of activity, not information about it;
- is formed together with other competencies, as a result of which professional competence is formed;
- as an action, competence is not formed by itself but is consciously formed and repeated many times, forming professional experience.

The analysis process showed that the formation of professional competencies is being implemented very rapidly. The main purpose of the questionnaire is to diagnose the results of mastering competencies, and the proposed algorithm for diagnosing professional competencies helps to simplify this task. By forming professional competencies, the student will have the ability to determine the relationship between knowledge and the situation and will be able to adequately solve the problems that arise. This means that we get a highly qualified specialist who can solve non-standard situations using a creative approach.

LITERATURE:

1. A.V.Gushchin The mission of pedagogical universities in the conditions of informatization of society // Bulletin of Mining University. - N. Novgorod: NSPU, 2016. - No. 1 (13)
5. Bazarova U.M. Kon-Metallurgiya Terminlarining Tillardagi Izohining Lingvistik Xususiyatlari //Journal of Innovation in Education and Social Research. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 45-47.



Saatbayeva Dilfuza

Xorazm viloyati Gurlan tumani 31-maktab psixologi

Sabirova Rayxonoy

Xorazm viloyati Gurlan tumani 24-umumiy o'rta ta'lim maktabining psixologi

Annotatsiya: ushbu maqolada psixologik testlar va ularning turlari, test o'tkazishning ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: test, masala, topshiriq, misol, jumboq, syujetli rasm, shakl, dunyo, olimlar.

Test - inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, mentalitetini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa masala, topshiriq, misol, jumboq, syujetli rasm yoki shakl test deb ataladi.

Test, ayniqsa, odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligi, iste'dodlilar, iqtidorlilar va aqli zaiflarni aniqlashda kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmatli tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning obyektivligi va ularni ilmiy tahlil qila olishga bog'liqdir.

Hozir butun dunyoda "test" so'zi jamiyatda va kishilar orasida keng qo'llaniladigan so'zlardan biri bo'lib qoldi. Chunki biror kasb-hunar orttirish uchun ham odam test sinovidan o'tadi, ya'ni testning "sinov uslubi" ekanligi ko'pchilikka yaxshi ayondir. Psixologik testlarning har qanday boshqa testlardan farqi shundan iboratki, ular yordamida shaxs va jamiyatga aloqador bo'lgan o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo'ladi. Ayni testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, xattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatilaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir. Ularning ham turlari mavjud. Test – so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya-ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berish so'raladi.

Test – topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreativlikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi. Bu kabi metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi –ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni falsifikatsiya qilishi mumkinligidir. Testlar ichida proyektiv testlar deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Ya'ni, tekshiriluvchiga shunday topshiriq beriladiki, u topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashayotganligini, natijasi qanday bo'lishini oldindan bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning "Siyoh dog'lari" testi, yoki TAT (tematik appersepshion test), tugallanmagan hikoyalar kabi testlarda bir narsaning proyeksiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi. 1921-yilda kashf etilgan "Siyoh dog'lari" va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog'lar nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emosional holatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat professional psixologgina qo'llashi va natijalarni mohirona tahlil qilishi talab qilinadi.

Shunday qilib, testlar qatoriga yutuqqa (maqsadga) erishish testlari (ular darsliklarda berilgan bilim, malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy taraqqiyot darajasini o'lchashga mo'ljallangan), shaxslilik testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va hulqini baholashga yo'naltirilgan diagnostik metodlardan iboratdir), shaxs «loyihasi» (proyektiv) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib, shaxs xususiyatlarining «loyihasi» ishlab chiqiladi), qobiliyat testlari, xotira testlari kiradi.



Endi testga ayrim misollar keltiramiz.

Ortiqcha soʻzni chiqarib tashlang:

A) Yenisey, Dnepr, Sirdaryo, Amur (javob: Dnepr - u Yevropada joylashgan);

B) Petrozavodsk, Ijevsk, Siktivkar, Abakan (javob: Abakan - u Osiyoda joylashgan).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – T.2005.

2. Barotov Sh.R. Taʼlimda psixologik xizmat. – Buxoro, 2007.

3. Дубровина И.В. Я работаю психологом. –М. 2001.

4. Колесникова Г.И. Основы психопрофилактики и психокоррекции. Ростов – н/Д.: Феникс.2002.

5. Лебедева Л.Д. Практика Арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. – СПб.: Речь,2003.

6. Psixologik maslahat: oʻquv qoʻllanma/Z.T. Nishanova, Sh. Asomuddinova; Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. — Toshkent: « Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 248 b.

7. U.Fayziyeva, N.Jumayev. Umumiy psixologiya. Oʻquv qoʻllanma. 2021

8. www.psixologiya.uz

9. www.pedagog.uz

10. www.ziyonet.uz

11. www.edu.uz



Shamsiddinov Doniyor

Yahyojeva Gulnora Bakhtiyorovna

Navoi State University of Mining and Technology

Abstract: In the article, the student's creative activity and its result reveal new material and spiritual values. It includes the acquisition of the student's creative knowledge and skills, as a result of which an innovative and unique product is produced.

Key words: creative activity, student, cultural value, knowledge, skill

Creativity is an activity, the result of which is the creation of new material and spiritual values. Creativity, which is a cultural and historical event by its essence, includes a psychological and pedagogical component in the form of student procedural aspects. It involves acquiring the skills, motivations, knowledge, and skills of an individual, resulting in the development of a product that is innovative and unique. The study of these activities by the student reveals the important role of the unconscious components of physical, emotional, and mental activity and, at the same time, the need for self-expression by the student in opening and expanding their creative possibilities. In the middle of the twentieth century, the psychology of creativity moved to a new stage of its development. In particular, great changes have taken place in the psychology of scientific creativity. These years took a leading place in creative research.

It distinguishes the ability of the subject to improve new knowledge, consciously or unconsciously, as a unique force of creative activity, as an indicator for the subsequent search for a solution to the problem. It is also emphasized that creative activity is related to the development of 32 new units as an indicative activity for creating solutions to educational problems; it is detailed with the possibility of developing new knowledge for the subject. Also, in determining the level of activity of students in educational activities, the directions of reproductive and productive-creative activities are shown separately. In the first case, we mean the activity of reproductive activity. In the second case, a change is made in the implementation of the action itself, the essence of which is not to obtain the final product, but to find a new way to obtain it; such an activity is defined as creative.

It emphasizes creative education and cognitive activity as a systematic solution to creative problems. Also, creative activity is one of the most interesting, complex, and understudied mental phenomena. The synonyms of the concept of "creative activity" in the specialized literature are heuristic activity, creativity, production activity, and creative (productive) thinking. According to the activity approach to mental processes, creative thinking is understood as a component of creative activity that performs certain tasks. In addition to thinking, creative activity also includes mental phenomena such as emotions, motives, memory, and will. The work explores the mental component of the creative process. Creative activity differs from reproductive activity, although many psychologists argue that there are no fundamental differences between them.

It specifically shows the ability of the subject to create new knowledge for himself, consciously or unconsciously, and then look for a way to solve the problem. In this way, it is emphasized that creative activity is related to the creation of new knowledge as an indicative action for the subsequent creation of ways to solve educational problems by the subject; it is detailed with the possibility of improving new knowledge for the subject.

LIST OF REFERENCES

1. G.B. Yahheeva, Students' creative activity development and her methods of technical university// Научные горизонты, 2019
2. Yakhoeva G. Retrospective analysis of the development of student's creative activity in education and cognitive activity //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 92-94.
3. Bakhtiyorovna Y.G., Muradkozievna R.D. The role of field-related terms in the development of students 'creative activity //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – №. 7.



INNOVATIVE AND CREATIVE TEACHING TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES

Sharipova Iroda Azamatovna,
Danakulova Rayhona Akmalovna,

Navoi state university of mining and technologies

Abstract: The article considers the problem of study and implementation of new teaching methods. The article considers the need for modernization of education through key areas connected with improving the effectiveness of training in subject disciplines. The article emphasizes the possibility of using innovative methods of teaching foreign languages, based on an innovative approach, aimed at the development and self-improvement of the individual, at the disclosure of its reserve capabilities and creative potential.

Keywords: foreign language teaching, innovative and creative technologies, directions of pedagogical innovations, educational and communicative process.

Modern realities require changes in all areas of human life. Education is no exception. The development of the education system requires the study and implementation of new teaching methods. General processes in society, global problems - all this is connected with the need to introduce innovations. The relevance of the study of this topic is determined by the modernization of education, where one of the most important areas is the quality of knowledge.

A modern foreign language lesson requires the use of innovative technologies that increase the efficiency of the educational process and guarantee the achievement of planned learning outcomes. Interactive learning is a special form of organizing cognitive activity, which consists of ensuring constant active interaction and is based on dialogue, modeling the product situation, and free exchange of opinions. This is mutual learning, in which both students and the teacher are equal subjects of learning with the only difference that the teacher becomes a real leader of the student body, the organizer of the learning process. A creative teacher has ample opportunities and an unlimited field for innovative activity, since in practice he can experiment and verify the effectiveness of various teaching methods, adjust them, carry out detailed structuring of research into the educational process, and offer new technologies and teaching methods. The main condition for such activity is the innovative potential of the teacher.

The innovative potential of a teacher is a set of sociocultural and creative characteristics of the personality of a teacher who shows readiness to improve teaching activities, the presence of internal means and methods capable of ensuring this readiness.

The specificity of a foreign language as an academic subject is that communication is not only the ultimate goal of learning, but also a means of achieving it. It is the teacher who does everything possible and impossible for this. Since language remains the only universal basis for thinking, knowledge of a foreign language should be considered from the point of view of improving intellectual abilities (memory, imagination, critical, logical, creative thinking). Interactive learning is learning in a dialogue mode, during which the participants in the pedagogical process interact with the goal of mutual understanding, joint solution of educational problems, and development of students' personal qualities. Educational material is easier to assimilate and is retained in memory for the longest time when the student does not passively perceive what the teacher says, but actively acts when studying the material. It should be noted that high-quality training of students would be impossible without the use of modern educational technologies. Innovative methods of teaching foreign languages, which are based on the direction and development and self-improvement of the individual, on the disclosure of his creative potential, create the prerequisites for effectively improving the educational process in higher educational institutions. These technologies help implement a person-centered approach to learning, provide individualization and differentiation of learning, taking into account the abilities of children and their level of knowledge. Scientific innovations that have propelled progress forward span all areas of human knowledge. There are socio-economic, organizational and managerial, technical and technological innovations. One of the types of social innovation is pedagogical innovation. Pedagogical innovation is an innovation in the field of pedagogy, a purposeful progressive change that introduces stable elements (innovations) into the environment that improve the characteristics of both



its individual components and the educational system itself as a whole. Pedagogical innovations can be carried out at the expense of the educational system's own resources (intensive development path) and by attracting additional capacities (investments) - new tools, equipment, technologies, capital investments, etc. n. (extensive path of development). The combination of intensive and extensive ways of developing pedagogical systems allows for the implementation of so-called "integrated innovations", which are built from the end of diverse, multi-level pedagogical subsystems and its components. Integrated innovations, as a rule, do not look like far-fetched, purely "external" measures, but rather conscious transformations stemming from deep-seated needs and the system.

Innovation can occur at different levels. The highest level includes innovations that permeate the entire pedagogical system. Progressive innovations arise on a scientific basis and help move practice forward. A fundamentally new and most important direction has emerged in pedagogical science – the theory of innovation and innovation processes. Regarding the novelty of reforms in education, there is a system of innovations aimed at radically transforming and improving the functioning, development and self-development of educational institutions and their management system. In the context of educational reforms, innovative activities aimed at introducing various pedagogical innovations have acquired particular importance in vocational education. They covered all aspects of the didactic process: cell forms, content and teaching technologies, educational and cognitive activities. Innovative learning technologies include: interactive learning technologies, project-based learning technology and computer technologies. Innovative methods of teaching foreign languages, based on an innovative approach, are aimed at the development and self-improvement of the individual, at revealing his reserve capabilities and creative potential. To achieve communicative competence - communication skills formed on the basis of linguistic knowledge, skills and abilities - I use the latest teaching methods that combine communicative and cognitive goals. Innovative methods of teaching foreign languages, based on an innovative approach, are aimed at the development and self-improvement of the individual, at revealing his reserve capabilities and creative potential. In the conditions of developmental education, it is necessary to achieve maximum student activity, which is ensured by interactive teaching methods. Unlike active methods, interactive ones are focused on broader interaction of students not only with the teacher, among themselves and on the dominance of student activity in the learning process.

Thus, the latest methods of teaching foreign languages contribute to the simultaneous solution of problems of a communicative, cognitive and educational nature. An analysis of the practice of teaching English in a higher educational institution showed that textbooks and methodological developments used in the learning process do not sufficiently take into account the role and importance of the motivational sphere of students and the nature of the relationship between motivational readiness's to master knowledge. Therefore, an urgent problem is the study of the motivational sphere of students, the development of ways and methods for its correction and development.

The leading motives for studying English as a professional discipline by students of a higher educational institution are the motives for professional personal improvement. The innovative status of a foreign language teacher in the system of developmental education gives him freedom of action in methodological and didactic activities.

References

1. Kovalenko O. Conceptual changes in the teaching of foreign languages in the context of the transformation of foreign language education // Foreign languages in educational institutions. – Pedagogical press, 2003.
2. Kryuchkov G. Bologna process as harmonization of the European system of higher education. // Foreign languages in educational institutions. – Pedagogical press, 2004.
3. Blair, R. W., ed (1982). Innovative approaches to language teaching. - New York: Newbury House.
4. Celce - Hurcia, H., ed (1991). Teaching English as a Second or Foreign Language. Heinle L Heinle Publishers. Boston, Massachusetts.



О‘QITUVCHILARNI ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINI YARATISHGA
TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Tangirov Xurram Ergashevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., (PhD)
(+998936502580, xurram_t@mail.ru)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab Informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha o‘qituvchilarni elektron ta‘lim resurslarini yaratishga tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Informatika va axborot texnologiyalari, elektron ta‘lim resurslari, maktab, internet, ta‘lim.

O‘qitishning elektron vositalarini yaratish yetarlicha katta hajmdagi mehnatni talab etadi. Ularni maksimal darajada samarali qilishga urinishlar ko‘pgina muammolarning paydo bo‘lishiga olib keladi, ularni hal etish yetarlicha tajribali va professional yaratuvchining qo‘lidan keladi. O‘qitishning elektron vositalarini yaratishga dahldor o‘qituvchi keyinchalik ta‘lim oluvchilarga taqdim etiladigan kompyuterli dasturlarni yaratish san‘atining “nozik joylari” ga e‘tibor berishi va ular haqida bilimga ega bo‘lishi shart.

Ko‘pincha o‘qitishning elektron vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish o‘qituvchi tomonidan ma‘lum mazmuni o‘quvchilarga kompyuter vositalari yordamida taqdim etishning oddiygina boshqacha yuklanish sifatida qabul qilinadi. Bunday yondoshuvda o‘quvchilarda ko‘rgazmali va nazariy obrazli fikrlarni faollashtirishning noyob imkoniyatlari qo‘llanilmay qoladi.

Yaratilgan o‘qitishning elektron vositalarining yuqori sifati va bir xilligi o‘qituvchilar tomonidan ham, o‘quvchilar tomonidan ham ularni o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi: shunday resurslardan birini yaratish misolida mazmunli to‘ldirish, navigatsiya so‘zi tamoyillariga bir marta o‘rganib, o‘qituvchilar ham, o‘quvchilar ham analogiya bo‘yicha amal qilib ortiqcha kuch va vaqt sarflamasdan boshqa ta‘lim resurslaridan to‘liq foydalanishlari mumkin. O‘quvchilar esa yangi interfeysni o‘zlashtirishga va o‘zi ishlayotgan resurslarning yangi turiga ko‘nikishga vaqt sarflashi shart bo‘lmaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitishning elektron vositalarini mohirona va samarali yaratishga o‘rgatishning maqsadga muvofiq ekanligini asoslovchi omillar ro‘yxatini keltiramiz:

1. Ko‘pgina o‘qitishning elektron vositalari turli xil axborot va telekommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash asosida qurilgan. Bunda resurslar mualliflari u yoki bu texnologiyalardan tartibsiz foydalanib, tanlashlarini asoslashga urinmaydilar ham. Bu holatda pedagoglar nafaqat o‘quvchilarni turli texnologiyalar bilan tanishtirishlari, balki o‘zlari ham turli texnologiyalar sohasida mutaxassis bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

2. Yaratilayotgan o‘qitishning elektron vositalari turli dizayn-ergonomik va estetik tamoyillariga bo‘ysingan holda interfeysni tashkil etishning turli paradigmalariga asoslanib quriladi. O‘qitishning elektron vositalarining interfeysli elementlari hech qanday tizimga bo‘ysinmagan holat ham ko‘puchrab turadi. Deyarli har bir o‘qitishning elektron vositasida mavjud o‘quv axboroti bo‘yicha navigatsiya va menyu qoidalarida bir xillikning yo‘qligi ayrim fanlarni o‘qitish jarayonini axborotlashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi.

3. O‘qitishning elektron vositalarini yaratishda mazmuni shakllantirishga turli xil yondoshuvlar va tamoyillar qo‘llaniladi. Bunday holda gap o‘qitishning elektron vositalari mazmuni bazasiga kirish uchun mazmuni tanlash tamoyili ham atamashunoslikni ta‘riflash, lingvistik tamoyillar va qoidalarga rioya qilish; mazmunli to‘ldirish bo‘yicha navigatsiyalar tizimini shakllantirish, mazmuni o‘quvchilar kontingentining yosh xususiyatiga va o‘qitishning elektron vositalari turiga moslashtirish qoidalari haqida boradi. Bundan tashqari barcha o‘qitishning elektron vositalari mazmuni ilmiylik, mantiqiylik, to‘liqlilik va konseptual yopiqlik talablarini bir qiymatli qanoatlantirishi kerak.

4. O‘qitishning elektron vositalarini yaratishning mavjud tizimi integratsiya imkoniyatini bermaydi. Bu yerda gap ularning yagona elektron o‘quv-metodik majmualar, muhitlar va Internet-portallar doirasidagi texnik integratsiyasi imkoniyatlari va ularning aniq tizimlarda yoki ta‘lim muassasalarida yuzaga kelgan yagona metodik majmua doirasida boradi. Qoidaga ko‘ra, mavjud o‘qitishning elektron vositalari ularni yaratuvchi ko‘zda tutgan to‘la hajmda qo‘llash imkonini bermaydi. Bundan tashqari, hattoki alohida fanlar bo‘yicha mavjud barcha resurslarni birgalikda qo‘llash, qoidaga



ko'ra ularning mazmunida aks ettirilmagan mazmunli elementlarni ko'zda tutmaydi.

Yuqorida keltirilgan dalillar shundan guvohlik beradiki, o'qitishning elektron vositalarini birgalikda undan foydalanish bo'yicha birinchi navbatdagi muammolardan biri mos pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashdan iborat. Zamonaviy pedagoglarni o'qitishning elektron vositalarini yaratish va undan foydalanishga tayyorgarligini shakllantirish jarayonida hal etish ijobiy natija berishi mumkin bo'lgan bir necha masalalar mavjud. Xususan, barcha oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilar uchun mos metodik tizimni yaratish va takomillashtirish zarur.

O'qitishda qo'llaniladigan o'qitishning elektron vositalari nafaqat pedagogik, balki dasturiy vositalar bo'lganligi sababli, o'quv materialini yaxshilab tuzilmalashtirmasdan turib o'quv materialining mazmunli qismini u orqali uzatish mumkin emas. Shunday qilib, o'qitishning elektron vositalarini ratsional loyihalash uchun o'qituvchilar o'quv fani materialini haqida tuzilmali-tizimli yaxlit tasavvurga, mos ta'lim sohalarining mazmunining aniqlangan tuzilmalari bo'yicha o'qitishning elektron vositalarining mazmunini ajratishning maxsus vositalari va texnologiyalariga ega bo'lishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беляев М.И., Гриншкун В.В., Краснова Г.А. Технология создания электронных средств обучения. Разработка Института дистантного образования Российского университета дружбы народов. – М.: – 2006. – с. 130.

2. Tangirov X.E. Umumta'lim maktablarida algebra kursini o'rganishda o'qitishning elektron vositalaridan foydalanish metodikasi. Qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. – 104 bet.



ПЕДАГОГНИНГ МАҲОРАТИ ВА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Д.Х.Астанова, С.А.Тухтаева,

Абу Али Ибн Сино номидаги жамоа саломатлиги
техникуми ўқитувчилари, Навоий

Аннотация. Мазкур мақола педагогнинг касбий фаолиятида муваффақиятни таъминловчи билимлар ва амалий фаолият усуллари комплекс равишида ўзлаштиришига қаратилган, компетентлик ёндашуви асосидаги касбий таълимни ташкил этиши ва ривожлантириши масалаларига қаратилган.

Калит сўзлар: касб, педагогика, методика, компетенция, компетентлик, компетентли ёндашув.

Аннотация. Данная статья направлена на знания и компетентный подход направленный на комплексное усвоение способов практической деятельности, а также, на создание и развитие профессионального образования, на основании которых обеспечивается успех в профессиональной деятельности педагога.

Ключевые слова: профессия, педагогика, методика, компетенция, компетентность, компетентный подход.

Annotation. This article highlights the knowledge and a competent approach aimed at the integrated assimilation of the methods of practical activity, as well as at the creation and development of professional education, on the basis of success in the professional activity of a teacher is ensured.

Key words: profession, pedagogy, methodology, competence, competent, competent approach.

Бугунги долзарб масалалардан бири бу педагогнинг касбий компетентлиги ва уларнинг касбий маҳоратидир. Шу боисдан ҳам кадрлар тайёрлаш миллий дастури замонавий педагог жавоб бериши керак бўлган талаблар комплексини белгилайди. Қуйидагилар мутахассиснинг педагогик ишга тайёргарлигининг зарур ва етарли даражасини таъминлайдиган асосий талаблар ҳисобланади. Зеро, давлатимиз томонидан таълимга қаратилаётган эътибор барча педагогларнинг ўзи устида ишлаши, тинмай изланиш олиб бориши ҳамда ўқув жараёнини замон талаблари даражасида, илмий асосда ташкил этишлари учун зарурий шароитларни яратиб бериш билан бир қаторда, таълим соҳасига ёш мутахассисларнинг келиб қўшилишига имконият яратмоқда, бу эса ўз навбатида таълим муассасаси педагоглар олдида янги вазифалар қўяди. Натижада педагогик маҳорат тўлақонли мазмунга эга бўлмай, уни эгаллаш қийин бўлиб қолиши мумкин. Хўш, педагогик маҳоратнинг ўзи нима? Уни қандай эгаллаш мумкин?

Педагогик маҳорат – бу ўқитувчи-тарбиячининг шундай шахсий (болажонлиги, хайрихоҳлиги, инсонпарварлиги, меҳрибонлиги, самимийлиги, назокати, ва ҳ.к) ва касбий (билимдонлиги, зукколиги, фидойилиги, ижодкорлиги ва ҳ.к) фазилятларини белгилайдиган хусусиятки, ўз ўқув фанини чуқур ва атрофлича билишида, педагогик психологик ва методик тайёргарлигида, ўқувчи-ёшларни ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантиришнинг оптимал йўллари излаб топиб, амалий фаолиятига қўллашидир.

Шундай қилиб, педагогик маҳорат эгаси бўлиш учун ўқитувчи ўз ўқув фанини давр талаблари асосида билиши, педагогика, психология, методика фанларини мукамал ўзлаштиришни ҳамда инсонийлик, меҳнатсеварлик ва фидойилик каби маънавий- ахлоқий фазилятларни ўзида таркиб топтириши лозим. Шунини алоҳида қайд қилиб ўтмоқ зарурки, педагогик касби мураккаб ва маъсулиятли касбдир.

